

## **QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI**

***Dastlabki ma'lumot  
2024-yil yanvar-iyul***



***Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi  
Tel. 61-222-67-45***

**Statistik ma'lumotlar** jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

## Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da



2024-yil 1-avgust holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni **4 203** tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **75** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **4 128** tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan

**Chakana savdo aylanmasi** – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.




Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024-yilning yanvar-iyul oylarida respublikaning chakana savdo tovar aylanmasi **6 236,1** mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **108,1%** ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **185,7** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **83,5** %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **6 050,4** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **109,1%**), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **840,7** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **116,6%**) tashkil etdi.

	Jami, mlrd. so'm	2023-yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>6 236,1</b>	<b>108,1</b>
Nukus shahri	1 296,1	108,1
tumanlar:	-	
Amudaryo	514,6	110,2
Beruniy	312,8	105,5
Bo'zator	74,6	105,4
Qorao'zak	277,5	106,9
Kegeyli	244,7	104,2
Qo'ng'iro't	477,1	108,0
Qonliko'l	230,4	107,3
Mo'ynoq	66,9	105,5
Nukus	176,7	107,4
Taxiatosh	238,2	100,3
Taxtakopir	209,6	108,9
To'rtko'l	726,4	112,4
Xo'jayli	563,2	108,5
Chimboy	320,2	110,8
Shumanay	129,9	103,7
Ellikqal'a	377,4	108,2

2024-yilning yanvar-iyul oylarida 2023-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan respublikaning To'rtko'l (**112,4%**), Chimboy (**110,8%**) Amudaryo (**110,2%**), tumanlari va Nukus shahrida (**108,1%**) chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

*Ulushi, foizda*




Respublika chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Nukus shahri 20,8 % bilan 1 296,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Respublika chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Mo'ynoq tumani 1,1 % bilan 66,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2023-yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.


*Hajmi, mlrd. so'm*






## Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2024-yilning yanvar-iyul oylarida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **6 050,4** mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **9,1%** ga oshdi. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **97,0 %** ni tashkil etdi.




## Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)


Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2023-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **83,5%** ni va **185,7** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **3,0 %** ulushiga to'g'ri keldi.



## CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Qorao'zak (99,8 %), Nukus (99,8 %) va Qonliko'l (100,0 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo Tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 3,0% ni tashkil etib, eng katta ulush Taxiato'sh (18,7%), Beruniy (6,0%), Nukus shahri (3,9%) va To'rtko'l (3,3 %) tumanlarida kuzatildi.

3,0%

97,0%

 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik




## Hududlar kesimida ma’lumot, *ming so‘mda*




2024-yilning yanvar-iyul oylari holatiga o‘rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **3 104,3** ming.so‘mni (2023-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **106,6** %) tashkil etdi.

Ushbu ko‘rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Taxtako‘pir (5 388,2 ming. so‘m), Qorao‘zak (5 091,1 ming. so‘m) va Xo‘jayli (4 365,6 ming. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.

## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati (2024-yil yanvar-iyul), foizda





**Dehqon (oziq-ovqat) bozori** – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.


	<b>Jami, mlrd. so'm</b>	<b>2023-yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda</b>
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>517,8</b>	<b>150,9</b>
Nukus shahri	63,3	159,5
tumanlar:		
Amudaryo	38,1	173,3
Beruniy	36,8	156,5
Bo'zatov	9,7	133,7
Qorao'zak	27,5	149,3
Kegeyli	44,6	131,4
Qo'ng'iro't	29,1	132,1
Qonliko'l	24,0	153,6
Mo'ynoq	5,4	141,1
Nukus	21,6	132,8
Taxiatosh	12,3	132,2
Taxtako'pir	25,0	167,0
To'rtko'l	70,6	149,6
Xo'jayli	35,0	166,0
Chimboy	44,2	176,9
Shumanay	10,7	135,2
Ellikqal'a	19,8	131,4

\* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tarihdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;


– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari

(2024- yil yanvar-iyul)














## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm (2024-yil yanvar-iyul)



Respublika bo'yicha 2024-yilning yanvar-iyul oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **840,7** mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **116,6%** ni tashkil etdi. Sh jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **517,8** mlrd. so'mni (**150,9 %**), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **322,8** mlrd so'mni tashkil etdi (**85,5%**).




2024-yilning yanvar-iyul oylarida respublikaning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **517,8** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**261,5** mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

## Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

<p><b>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</b></p> <p><b>261,5</b> mlrd. so'm</p>  <p><b>50,5%</b></p>	<p><b>Non va non mahsulotlari</b></p> <p><b>27,5</b> mlrd. so'm</p>  <p><b>5,3 %</b></p>	<p><b>Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)</b></p> <p><b>65,4</b> mlrd. so'm</p>  <p><b>12,6%</b></p>
<p><b>Tovuq go'shti</b></p> <p><b>25,9</b> mlrd. so'm</p>  <p><b>5,0 %</b></p>	<p><b>Quritilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)</b></p> <p><b>15,6</b> mlrd. so'm</p>  <p><b>3,0 %</b></p>	<p><b>Tuxum</b></p> <p><b>26,6</b> mlrd. so'm</p>  <p><b>5,1 %</b></p>
<p><b>Ziravorlar</b></p> <p><b>15,6</b> mlrd. so'm</p>  <p><b>3,0 %</b></p>	<p><b>Sut va sut mahsulotlari</b></p> <p><b>27,7</b> mlrd. so'm</p>  <p><b>5,3 %</b></p>	<p><b>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak</b></p> <p><b>19,5</b> mlrd. so'm</p>  <p><b>3,8%</b></p>
<p><b>Tuzlamalar</b></p> <p><b>18,2</b> mlrd. so'm</p>  <p><b>3,5%</b></p>	<p><b>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</b></p> <p><b>14,3</b> mlrd. so'm</p>  <p><b>2,8 %</b></p>	<p><b>Nooziq-ovqat tovarlar</b></p> <p><b>-</b> mlrd. so'm</p> <p><b>- %</b></p>


2024-yilning yanvar-iyul oylarida, respublikaning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **322,8** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi **271,6** mlrd.so'm, qo'y va echkilar – **44,5** mlrd. so'mni, otlar – **4,6** mlrd. so'mni, parrandalar – **2,1**mlrd. so'mni tashkil qildi.

**Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi**

<p><b>2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar</b></p> <p><b>143,5</b> mlrd. so'm</p>  <p>44,4%</p>	<p><b>1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</b></p> <p><b>62,5</b> mlrd. so'm</p>  <p>19,4%</p>	<p><b>1 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</b></p> <p><b>65,6</b> mlrd. so'm</p>  <p>20,3 %</p>
---	--	--

<p><b>Qo'ylar</b></p> <p><b>28,0</b> mlrd. so'm</p>  <p>8,7%</p>	<p><b>Otlar</b></p> <p><b>4,6</b> mlrd. so'm</p>  <p>1,4 %</p>	<p><b>Echkilar</b></p> <p><b>16,5</b> mlrd. so'm</p>  <p>5,1%</p>
--	---	---

<p><b>Kurka, o'rdak, g'oz</b></p> <p><b>1,4</b> mlrd. so'm</p>  <p>0,4 %</p>	<p><b>Tovuqlar</b></p> <p><b>0,7</b> mlrd. so'm</p>  <p>0,2 %</p>	<p><b>Quyionlar</b></p> <p><b>-</b> mlrd. so'm</p>  <p>-%</p>
--	--	---

<p><b>Qushlar</b></p> <p><b>-</b> mlrd. so'm</p>  <p>-%</p>
--



## UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2024-yil 1-avgust holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 746 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 746 tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2023-yil yanvar- iyul oylariga nisbatan, foizda
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>217,8</b>	<b>108,0</b>
Nukus shahri	93,7	109,2
<i>tumanlar:</i>		
Amudaryo	9,5	107,1
Beruniy	7,3	107,3
Bo'zatov	0,6	106,5
Qorao'zak	5,5	106,5
Kegeyli	2,3	108,6
Qo'ng'iro't	49,7	106,7
Qonli'ko'l	2,5	107,9
Mo'ynoq	0,9	108,4
Nukus	1,9	109,2
Taxiatosh	4,9	106,8
Taxtako'pir	1,4	108,8
To'rtko'l	13,5	106,6
Xo'jayli	12,0	107,5
Chimboy	6,1	110,0
Shumanay	1,0	109,6
Ellikqal'a	5,0	106,2

2024-yilning yanvar-iyul oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi **217,8** mlrd. so'mga yetdi. 2023-yilning mos davriga nisbatan **108,0%** ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining **100,0%** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.




## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>1 367,3</b>	<b>100,0</b>
Nukus shahri	853,0	62,4
tumanlar:		
Amudaryo	17,9	1,3
Beruniy	328,6	24,0
Bo'zatov	0,8	0,1
Qorao'zak	1,7	0,1
Kegeyli	117,7	8,6
Qo'ng'iro't	1,7	0,1
Qonliko'l	7,4	0,5
Mo'ynoq	0,8	0,1
Nukus	0,1	0,0
Taxiatosh	7,1	0,5
Taxtako'pir	2,2	0,2
To'rtko'l	11,6	0,9
Xo'jayli	3,8	0,3
Chimboy	4,3	0,3
Shumanay	1,3	0,1
Ellikqal'a	7,3	0,5


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Nukus shahri (**853,0** mlrd. so'm), Beruniy (**328,6** mlrd. so'm) va Kegeyli (**117,7** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd. so‘m)




2024-yilning yanvar-iyul oylarida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta‘mirlash va texnik xizmat ko‘rsatishdan tashqari*) **1 367,3** mlrd. so‘mni tashkil etdi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **104,2%** ga oshdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi **432,4** mlrd. so‘m (o‘sish sur‘ati – **76,6%**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyetklari savdo hajmi – **934,9** mlrd. so‘mni (o‘sish sur‘ati – **125,0%**) tashkil qildi.

### Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os‘ish sur‘ati, foizda



**Ulgurji savdo tovar aylanmasi** – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar qiymati.

## Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Respublika bo‘yicha 2024-yilning yanvar-iyul oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **2 652,4** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan **13,7 %** ga o‘ydi.

## Savdo aylanmasi va ulushi



**Yirik korxonalar**



**Mikrofirma va kichik korxonalar**

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda **2 198,9** mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2023-yilning mos davriga nisbatan **105,7 %** ga to‘g‘ri keldi. Respublikada ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **82,9%** ni tashkil qildi.



## ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O'SISH SUR'ATI

2024-yil 1-avgust holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 1 195 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 5 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 190 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega eng yirik korxonalar Nukus shahrida (115,7%) va Taxiatoş tumanida (103,4%) kuzatildi

	Jami mlrd. so'm	2023-yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>2 652,4</b>	<b>113,7</b>
Nukus shahri	1 051,5	106,3
<i>tumanlar:</i>		
Amudaryo	82,1	107,8
Beruniy	127,1	109,2
Bo'zatov	4,4	102,1
Qorao'zak	38,3	102,6
Kegeyli	20,1	104,3
Qo'ng'iro't	92,9	102,5
Qonliko'l	266,1	348,4
Mo'ynoq	64,3	118,5
Nukus	66,1	110,2
Taxiatoş	324,9	103,2
Taxtako'pir	29,8	103,3
To'rtko'l	262,7	105,1
Xo'jayli	60,7	103,8
Chimboy	59,1	101,3
Shumanay	4,3	102,6
Ellikqal'a	98,2	103,5